



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA  
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

**KONFERENSIYA**

**MATERIALLARI  
TO'PLAMI**

**TOSHKENT - 2026-YIL**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR  
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI  
materiallar to'plami**

**Toshkent shahri-2026**

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:  
Abdurazakova K.Y.  
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:  
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

### **Annotatsiya**

*Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.*

### **Аннотация**

*Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).*

### **Annotation**

*This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.*

bo'lmagan, yashashni istamaydigan, hech narsaga qiziqmaydigan yoshlar turli jinoyatlarga qo'l urilib, o'z joniga qasd qilishlari ko'p uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda o'z joniga qasd qilish g'oyasini targ'ib qiluvchi va uni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatuvchi guruhlar soni ko'paygan. Yoshlarga taqlid qilinayotganini inobatga olsak, ularning chalg'itib, mana shu guruhlar tuzog'iga tushib qolishlari xavotir uyg'otadi. Bu muammolar yoshlar tarbiyasida an'anaviy ma'naviy qadriyatlarning yetarli darajada yo'qligidan dalolat beradi. Ota onalar va jamiyat tomonidan yoshlar tarbiyasiga yetarlicha ye'tibor berilmayapti, tarbiyaviy ishlarda an'anaviy milliy qadriyatlardan to'g'ri foydalanilmayapti. Shu boisdan ham yurtimiz kelajagi uchun bilimli yoshlarni etishtirishning o'zi kamlik qiladi, o'zbek xalqi o'z qalbiga ma'naviy qadriyatlarni singdira oladigan navqiron avlodni tarbiyalasagina asrlar osha qoqilmaydi. Yurtimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekanligini unutmaylik. Xalqimiz azaldan o'z kelajagi – yoshlar tarbiyasiga ye'tibor qaratgan. Millat, millat merosini olib yuruvchi yoshlarni tarbiyalashning yo'llari va vositalari ko'p. Ularning eng muhimlaridan biri yoshlarga vatanparvarlik ruhida ta'lim va tarbiya berishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020 yil 25 yanvar. № 19 (7521)
2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. -195 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.// 25.01.2019. <http://www.uza.uz>.
4. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, - 300 b.

## **YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI**

**Islamova Dildora Xamidullayevna**

*“Falsafa va milliy g'oya” kafedrası dotsenti,  
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika Universiteti,*

*[Tel:+998998478669](tel:+998998478669)*

**Doi:** 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/PUQP7725

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi uninchil renessans davrida yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish va yuksaltirishning strategik vazifalari, ta'lim va tarbiya siyosatining ijtimoiy mo'ljallari hamda yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ongi va tafakkuri masalasi globallashuvning bugungi chegarasida o'ziga xos hal qiluvchi nuqtalardan biri ekanligi shu bilan birga yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning hozirgi vaqtdagi dolzarb muammolari va ularning yechimi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** *Tinchlik, jamiyat, yoshlar, davlat, mahalla, shaffoflik, vatanparvarlik, ta'lim-tarbiya, urf-odatlar.*

**Annotation:** This article discusses the strategic tasks of developing and enhancing the spiritual culture of youth in the new stage of Uzbekistan's development, referred to as the Third Renaissance. It also examines the social priorities of education and upbringing policies, and emphasizes that the issues of youth education, consciousness, and thinking are among the decisive factors in today's era of globalization. At the same time, the article addresses current pressing problems in raising the spiritual culture of young people and explores ways to solve them.

**Keywords:** *Peace, society, youth, state, neighborhood (mahalla), transparency, patriotism, education and upbringing, traditions and customs.*

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati sharoitida siyosiy faollik ko'proq yoshlar tashkilotlari, ma'naviyat va ma'rifatga daxldor jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, mahalla, oila kabi fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida o'zaro mustahkam aloqa bog'lanishini talab etadi. Umuman bugungi demokratik jarayonlar chuqurlashayotgan, fuqarolik jamiyati institutlari shakllanayotgan sharoitda har qanday masalaning yechimida davlat va jamiyat o'rtasida uyg'unlik ta'minlanmas ekan, islohotlarda kerakli natijalarni qo'lga kiritish qiyinchilik bilan amalga oshishi aniq. Demak, islohotlar va ularning samarasi avvalo aholiga, O'zbekiston sharoitida esa yoshlarga, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining, ya'ni siyosiy faolligining darajasiga bog'liqdir. Ayni masalada, ya'ni, jamiyat taraqqiyotida inson omili xususida dunyo tajribasiga to'xtalsak, ikkinchi jahon urushidan keyingi honavoyran bo'lgan Germaniya va Yaponiya kabi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ziyon ko'rgan, bugungi kunda esa, taraqqiyotda katta tajribaga ega bo'lgan davlatlar milliy taraqqiyoti ham jamiyatning yuksak darajadagi faolligi asosida amalga oshganligini ko'rsatadi. Nemis va yapon jamiyati urushdan keyingi och-nahorliklarga,

muhtojliklarga qaramay, barcha topganlarini yoshlar kamolotiga, ularning ta'lim va tarbiyasi uchun sarflagan. Buning ustiga g'olib davlatlar ko'rgan zararlarni ham ana shu xalqlar to'lashi kerak bo'ldi. Ana shunday og'ir sharoitda Yaponiyada siyosiy, iqtisodiy inqirozga uchragan mamlakatni tushkunlikdan olib chiqishning birdan-bir yo'li sifatida xalq milliy ruhiyatini tiklash, ta'lim tizimini yangi asosda yo'lga qo'yishga e'tibor qaratildi. «Xalqning qornini to'ydirish uchun, avvalo uning miyasini to'ydirish kerak» degan o'ziga xos shior va g'oya ilgari surildi. Bu g'oya «miyasi to'ygan xalqning qorni o'z-o'zidan to'yadi» degan tamoyil asosida amalga oshirila boshlangan. «Miyasi to'ygan» xalqning e'tiqodi, mamlakat istiqboliga ishonchi, vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'usi, ilmiy, madaniy saviyasi, kasbiy mahorati, mamlakat oldidagi burch va mas'uliyatini anglash tuyg'usi qanchalik yuqori va mustahkam bo'lishini nemis va yapon xalqlarining tarixiy tajribasi tasdiqlamoqda. Demak, jamiyat taraqqiyotning qaysi bosqichida bo'lmasin, uning rivoji yuksak darajadagi ijtimoiy-siyosiy faollik hamda fuqarolarning ma'naviy kamoloti orqali amalga oshadi.

Ma'naviy madaniyat - bu ma'naviy qadriyatlarning ma'lum bir tizimi, inson u yoki bu tarzda ma'naviy boylikni egallaydi va shu tariqa shaxs sifatida namoyon bo'ladi, shuning uchun ma'naviyatga erishish inson hayotining asosiy vazifasidir. Biror kishi nimani o'zlashtirishi mumkinligi va undan yordam so'rashi kerakligi haqida qiyin savol tug'iladi. Masalan, ekzistensializm har qanday shaklda ta'limni rad etadi, uni insonga nisbatan zo'ravonlik yoki hech bo'lmaganda uning erkinligini cheklaydi. Biroq, inson ma'naviyatini til, ta'lim, aloqa, sotsializatsiya orqali boyitib borishi aniq. Hisob-kitoblar, qadriyatlar, tabiatni, vaqtni, ideallarni idrok etish usullari hayot jarayonida an'analar va ta'lim orqali inson ongiga joylashtirilgan. Jamiyat tarixi davomida, tabiat va o'zining tarixi davomida, boshqa odamlarga o'tish va o'z-o'zini harakat qilish jarayonida insoniyat tabiatdir. Boshqa tomondan, inson haqiqatan ham o'z mohiyatini - haqiqatni yaratadi, bilishning qiyin yo'lini tugatadi, o'zida yangi chinakam insoniy fazilatlarni rivojlantiradi, qobiliyatlarni ko'paytiradi, ehtiyojlarni oshiradi, yangi kuchlarni shakllantiradi. Inson ichki dunyosi tashqi sharoitlar va ularni o'ziga xos aks ettirish ta'siri ostida shakllanadi, ya'ni bu ta'lim jarayonida va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida amalga oshadi. Ikkinchisi shaxsning ichki faoliyati natijasi, u

uchun foydali, orzu qilingan deb hisoblanadigan fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Yoshlar ijtimoiy siyosiy ongini o'stirish va yangicha dunyoqarashini shakllantirish masalalari ma'naviy yetuklikka asoslangan hamkorlik, hamjihatlilik, hamfikrlilik omillari turli inqirozli holatlar, to'qnashuvlarning oldini olish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu esa taraqqiyotning tadrijiyligiga olib keladi. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy barqarorligi jamiyatdagi ma'naviy salohiyat va intellektual omilning natijasi ekanligini ko'rsatmoqda. Bunda ijtimoiy siyosiy faollik va milliy birlikning ta'minlanishini ikki xil aspektda ko'rish mumkin: 1) Bu jarayon jamiyat siyosiy tizimi, ya'ni kuchli davlat va uning ijro hokimiyatining amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan. (Milliy taraqqiyotning bunday yo'lini Amerika Qo'shma Shtatlari va Angliyaning 1930-1940 yillardagi siyosiy tizimi va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarda ko'rish mumkin.); 2) xalq ijtimoiy-siyosiy faolligi, millatning o'z-o'zini anglashi, ta'lim tizimiga alohida e'tibor, milliy taraqqiyot sari g'oyaviy-mafkuraviy birlikka intilishi bilan bog'liq bo'lgan. Germaniya va Yaponiyaning ikkinchi jahon urushidan keyingi milliy taraqqiyoti va unda nemis va yapon xalqlarining milliy birligining aks etganligi misolida ko'rish mumkin. Agar ana shunday vaziyatda xalqning ruhan tetikligi, g'oyaviy birligi bo'lmasa, jamiyat siyosiy tizimi amaliyotda hech qanday samara bermasligi mumkin edi. Aslida, o'tish davrida jamiyatning barcha sohalaridagi muammolar bir qalqib yuzaga chiqadi. Ana shunday dolzarb muammolarning yechimida aholi (Mamlakatimiz sharoitida aholining 60% dan ortig'ini tashkil qiladigan yoshlar)ning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ongi va dunyoqarashi belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Mavjud muammolarning ko'lami, xalqning maqsad manfaatlari tizimi bilan bog'liqlik darajasi ommaning jamiyat taraqqiyoti bilan uyg'unlashuviga hamda shu asosda siyosiy dunyoqarashning, yangicha tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Yuqoridagi berilgan faktlardan ma'lum bo'ladiki, har qanday mamlakatda ham har qanday avlod texnikada, texnologiyada, ishlab chiqarishda, farovonlik darajasida, ma'naviy madaniyatda olg'a siljishga qulay sharoitga ega bo'lavermaydi. Biroq barkamol avlod meros qilib oladigan ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga olib kelsa va o'zi ham hech bo'lmasa ushbu tuzum doirasida

takomillashadigan bo'lsa, yangi avlod ishlab chiqarishni, texnikani, texnologiyani, fanni, ta'limni, madaniyatni rivojlantirish masalalarini o'zi muvaffaqiyatli hal etgan bo'lardi. Bunda, aslida, inson muammosi, uning ehtiyojlarini qondirish, qobiliyatini namoyon etish, jismoniy, madaniy va intellektual jihatdan kamol topish, ijtimoiy hayotning turli sohalarida faol ishtirok etish uchun sharoit yaratish muammosi global nuqtayi nazardan diqqat markazida turadi. Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarning tarixiy ustuvorliklari ko'p jihatdan ularda aynan shu masalalar qanchalik muvaffaqiyatli hal etilayotgani bilan belgilanadi. Shaxs ma'naviy madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan eng katta tahdidlardan biri bu – korrupsiyadir. Bugun dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat doirasidagi yirik korrupsion jinoyatlardan ko'ra maishiy korrupsiya katta yo'qotishlarga olib keladi. Janubiy Afrika Respublikasi Stellenboss universiteti peshtoqiga quyidagi ibora yozib qo'yilgan. «Har qanday millatni yo'q qilish uchun atom bombasi yoki uzoq masofali raketa shart emas. Buning uchun ta'lim sifatini tushirib, imtihonlarga aldov aralashtirishning o'zi kifoyadir. Bu tarzda ta'lim olgan shifokorlar qo'lidan bemorlar o'lim topadi, quruvchilar qurgan uy va binolar vayron bo'ladi, iqtisodchi va hisobchilar qo'lida moliyaviy resurslar sovriladi, adolat ham shunday huquqshunos va sudyalari qo'lida zavol topadi. Taasufki, oliy ta'lim tizimida asosan talabalik safiga qabul qilish, o'qish jarayonida topshiriladigan turli sinovlar, talabalarning bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish, magistraturaga qabul, shuningdek, talabalarning o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklashda korrupsiya holatlari kuzatilmoqda.

Xullas, an'anaviy qadriyatlarimizni ilm–fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik – bu boradagi asosiy vazifalarimizdandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020 yil 25 yanvar. № 19 (7521)



2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. -195 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.// 25.01.2019. <http://www.uza.uz>.
4. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, - 300 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618 “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi farmoni.//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.//<http://www.lex.uz>.
6. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. -535 b.

## YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOY OMILLARNING AHAMIYATI

**G'ulamov Obidjon G'ayratovich**

*Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti, PhD*

*ORCID: 0009-0009-6446-6188*

*E-mail: obidgulomov03@gmail.com*

*Tel: +998-90-998-86-76*

**Doi:** 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/DIQH2327

**Annatsiya:** Ushbu maqolada yoshlar kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish asosida ularda g'oyaviy immunitetni mustahkamlash asosiy o'rin egallaydi. Milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish va uni asrab-avaylash kabi muhim masalalar ochib berilgan. Shuningdek, yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida yoshlarda g'oyaviy immunitetni rivojlantirish masalalarining istiqbolli qirralari ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** *Yoshlar, yangilanayotgan O'zbekiston, milliy qadriyatlar, huquqiy madaniyat, milliy g'oya, ma'rifat, yot g'oyalar, g'oyaviy immunitet.*

**Abstract:** This article, based on the study of factors affecting the maturation of young people, focuses on strengthening their ideological immunity. Important issues such as respecting and preserving our national values are revealed. Also, promising aspects of the development of ideological immunity in young people in the conditions of a renewed Uzbekistan are put forward.

**Key words:** *Youth, renewed Uzbekistan, national values, legal culture, national idea, enlightenment, foreign ideas, ideological immunity.*

## MUNDARIJA.

| <b>T\ r</b>                                       | <b>Mavzusi</b>                                                                                                                                                   | <b>beti</b> |
|---------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| <b>I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN</b> |                                                                                                                                                                  |             |
| 1.                                                | <b>Sirojiddinov Sh.S.</b> KIRISH SO'ZI.                                                                                                                          | 4           |
| 2.                                                | <b>Jamolidinova O.R.</b> TABRIK SO'ZI.                                                                                                                           | 6           |
| 3.                                                | <b>Yunusov K.A.</b> GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV                                                   | 8           |
| 4.                                                | <b>Kushayev U.R.</b> QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI                                                                         | 13          |
| 5.                                                | <b>Sultonova N.E.</b> SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.                                                                                           | 19          |
| 6.                                                | <b>Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D.</b> FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI | 23          |
| 7.                                                | <b>Islamova D.X., Abdusattorov A.B.</b> YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI                                              | 28          |
| 8.                                                | <b>Islamova D.X.</b> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI                        | 32          |
| 9.                                                | <b>G'ulamov O.G'.</b> YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI                                                                        | 37          |
| 10.                                               | <b>Ibrogimova G.</b> MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.                                                                | 42          |
| 11.                                               | <b>Ahadov SH.</b> CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN                                                                                                          | 47          |

|                                                                             |                                                                                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|                                                                             | CENTRAL ASIA.                                                                                                                                     |     |
| 12.                                                                         | <b>Jumaqulova N., Arolova Z.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI                          | 56  |
| 13.                                                                         | <b>Mirsoliyeva N.</b> GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI                                                                       | 61  |
| 14.                                                                         | <b>Ibragimov B.I.</b> TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI | 65  |
| 15.                                                                         | <b>Shirnova Y.T., Isakulova S.E.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA              | 71  |
| 16.                                                                         | <b>Mirsoliyeva N.</b> YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI                                      | 75  |
| 17.                                                                         | <b>Karimov F.</b> O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI                                          | 79  |
| <b>II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI</b> |                                                                                                                                                   |     |
| 18.                                                                         | <b>Omonov B.</b> YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR                                                                      | 85  |
| 19.                                                                         | <b>Kuchkarov V.</b> PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY                                          | 93  |
| 20.                                                                         | <b>Nazarov N.</b> YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI                                                       | 101 |
| 21.                                                                         | <b>Abdurazakova K.</b> IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.                                                     | 107 |
| 22.                                                                         | <b>Nazarova D., Boymirzayev O.O.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN                                            | 113 |

|     |                                                                                                                              |     |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|     | HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI                                                                                                   |     |
| 23. | <b>Kudratova U.</b> TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI                                                                   | 119 |
| 24. | <b>Jiyanmuratova G.</b> YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR                               | 123 |
| 25. | <b>Ma'mirova O.</b> DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI   | 128 |
| 26. | <b>Salayev F.</b> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI | 135 |
| 27. | <b>Ibragmov J.</b> MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR                                                                        | 138 |
| 28. | <b>Ergashev K., Shaymardonova G.</b> KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT                                                    | 145 |
| 29. | <b>Бозаров А.</b> НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.                                            | 151 |
| 30. | <b>Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N.</b> GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI                                              | 159 |
| 31. | <b>Mirraximov B.</b> YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI                                       | 163 |
| 32. | <b>Ergashev K.E.</b> O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT                                           | 168 |
| 33. | <b>Shirzad R.</b> YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).   | 176 |
| 34. | <b>Gong Yi Feng.</b> THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS     | 189 |
| 35. | <b>SHI FENGKAI.</b> CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN                          | 197 |

|                                                                                                    |                                                                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|                                                                                                    | COOPERATION.                                                                                                                                 |     |
| 36.                                                                                                | <b>Rakhimov M.</b> YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN  | 201 |
| <b>III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI</b> |                                                                                                                                              |     |
| 37.                                                                                                | <b>Qahramon R.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI                                                    | 207 |
| 38.                                                                                                | <b>Isakov B.N.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. | 220 |
| 39.                                                                                                | <b>Jurakulov J.</b> YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.                                   | 224 |
| 40.                                                                                                | <b>Yarkulov A.</b> YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.                                                  | 232 |
| 41.                                                                                                | <b>Abdusalomova S.</b> MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.   | 241 |
| 42.                                                                                                | <b>Abdusalomova S.</b> GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.                      | 248 |
| 43.                                                                                                | <b>Mirzoyeva F., Boboxonov Sh.</b> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.       | 252 |
| 44.                                                                                                | <b>Muminov B.</b> MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.                                                        | 259 |
| 45.                                                                                                | <b>Mirzoyeva F.</b> O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.                                                                  | 268 |
| 46.                                                                                                | <b>Qurbonova M.</b> MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:                                                                                        | 273 |

|                                                                                  |                                                                                                                                             |     |
|----------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|                                                                                  | MUVOZANAT MASALASI.                                                                                                                         |     |
| 47.                                                                              | <b>Mirzoyeva F., Rashidi O.</b> BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).       | 278 |
| 48.                                                                              | <b>Abdurazakova K., Rustamova A.</b><br>RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.                                      | 282 |
| 49.                                                                              | <b>Jo'raqulov J.</b> SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.                                                                         | 291 |
| 50.                                                                              | <b>Xurromova S.</b> IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.                                                      | 300 |
| 51.                                                                              | <b>Razzakova N., Axunova D.</b><br>IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI. | 304 |
| <b>IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI</b> |                                                                                                                                             |     |
| 52.                                                                              | <b>Alimboyeva R.</b> YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.                           | 314 |
| 53.                                                                              | <b>Alimboyeva R.</b> BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.                                              | 319 |
| 54.                                                                              | <b>Alimboyeva R., Xolbekova Sh.</b> YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.                                                       | 324 |
| 55.                                                                              | <b>Xaitmetov F., Nuzilloeva G.</b> MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.                | 330 |
| 56.                                                                              | <b>Alimboyeva R., Majidova O.</b> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.       | 336 |

|     |                                                                                                                                   |     |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 57. | <b>Alimboyeva R., Norkobilova SH.</b><br>JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI<br>TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI. | 342 |
| 58. | <b>Sobirova D.</b> ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA<br>INSON QADRI                                                               | 349 |

**To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.**

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy



